ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2026-yil, 2-son (156/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Samarqandning Temuriylar sulolasi davridagi evolyutsiyasi, uning sivilizatsiyalarga o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi **Keremu N.**	The evolution of samarkand during the timurid dynasty and the interaction and fusion of its civilizations **Keremu N.**	**5-11**
2	Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv **Safarova D.B.**	A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”) **Safarova D.B.**	**12-15**
3	Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi va ularning til tizimidagi o‘rni **Pardayeva N.B.**	Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system **Pardaeva N.B.**	**16-20**
4	O‘rta asrlarda sharq va g‘arbiy yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili **Abdullayev A.G.**	A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages **Abdullaev A.G.**	**21-27**
5	Davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari **O‘tayev O‘. Ch.**	History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages **Utaev U. Ch.**	**28-30**
6	Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari va muzey fondlari shakllanishiga qo‘shgan hissasi **Yunusov M.**	The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections **Yunusov M.**	**31-36**
7	7-9-sinf o‘quvchilarining stem kompetensiyalarini baholash: spetsifikatsiya, mezonlar va kpi indikatorlari **Aliyeva X.Sh.**	Assessment of Stem competencies of 7-9 grade students: specification, criteria and kpi indicators **Alieva Kh.Sh.**	**37-42**
8	Raqamli tibbiy ta’limda talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari **Mirzakarimova D.B.**	Technologies for the development of preventive immune culture in digital medical education students **Mirzakarimova D.B.**	**43-49**
9	10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlik sifatining kurash texnikasini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri **Toshmurodov O.**	The effect of flexibility on the efficiency of kurash technique acquisition in 10–12-year-old kurash athletes **Toshmurodov O.**	**50-57**
10	Влияние государственной политики развития спорта (в контексте «нового Узбекистана») на мотивацию учащихся спортивных школ **Мадаминов Б.Ш.**	The influence of state policy on sports development (in the context of "New Uzbekistan") on the motivation of students in sports schools **Madaminov B.Sh.**	**58-62**
11	Трансформация и калькирование иронических фразеологических единиц в русском и узбекском языках **Тошбекова Д.И.**	Transformation and Calquing of Ironic Phraseological Units in Russian and Uzbek **Toshbekova D.I.**	**63-68**
12	Объективная и субъективная модальность в русском и узбекском языках **Усманова С.Ю.**	Objective and subjective modality in Russian and Uzbek languages **Usmanova S.Yu.**	**69-76**
13	Образ женщин в произведениях Ч. Айтматова **Хаитова Ф.С.**	The Image of Women in the Works of Ch. Aitmatov **Khaitova F.S.**	**77-81**
14	Voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzalligi **Boltayev Z.B.**	The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches **Boltaev Z.B.**	**82-87**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
15	Bo‘lajak shifokorlarda klinik-diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli va raqamli ta’lim **Zokirov M.M.**	Pedagogical model for developing clinical-diagnostic competence in future physicians and digital educational technologies **Zokirov M.M.**	**88-93**
16	Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (tika)ning tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda tashkiliy-siyosiy asoslari **Isadjanov B.I.**	The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations **Isadjanov B.I.**	**94-98**
17	Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlari: lingvostilistik tahlil **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	**99-103**
18	Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda 4k modeli orqali fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	**104-108**
19	Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining konfiguratsiyasi **Muminjonova U.X.**	Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy **Muminjonova U.X.**	**109-113**
20	Simulyatsion va raqamli ta’lim muhitida jarrohlik fanini o‘qitishda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi **Abduvoxidov A.A.**	Technology for developing practical professional competencies in teaching surgery within a simulation-based and digital learning environment **Abduvoxidov A.A.**	**114-119**
21	Shoshilinch tibbiy yordamda travmatologik holatlarni sun’iy intellekt asosida erta triaj qilish va klinik qaror qabul qilish samaradorligini oshirish metodikasi **Xolmatov A.A.**	Methodology for improving the efficiency of early triage and clinical decision-making in traumatological conditions in emergency medical care based on artificial intelligence **Xolmatov A.A.**	**120-125**
22	Bo‘lajak shifokorlarda klinik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik raqamli texnologiyalari **Samatov Z.Z.**	Pedagogical digital technologies for developing clinical decision-making competence in future physicians **Samatov Z.Z.**	**126-130**
23	Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klinik-profilaktik fikrlash va epidemiologik xavflarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Turdiyev M.N.**	Technology for developing clinical-preventive thinking and epidemiological risk management competencies in teaching infectious diseases **Turdiev M.N.**	**131-136**
24	Bo‘lajak shifokorlarga raqamli ta’lim muhitida anatomiya fanini o‘qitishninig zamonaviy texnologiyalari **Nishonova D.T.**	Modern technologies of teaching anatomy to future physicians in a digital educational environment **Nishonova D.T.**	**137-142**
25	Stomatologiya ta’limida valeologik madaniyatni rivojlantirishning integrativ va raqamli pedagogik texnologiyalari **Kamoliddinova I.Sh.**	Ntegrative and digital pedagogical technologies for developing valeological culture in dental education **Kamoliddinova I.Sh.**	**143-148**
26	Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish **Temirova Z.A.**	Improving students’ media literacy skills in a digital learning environment based on interactive educational technologies **Temirova Z.A.**	**149-154**
27	Tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Kamalova D.A.**	Technology for developing clinical thinking competence among students of medical educational institutions **Kamalova D.A.**	**155-159**
28	Charlz Dikkensning ijodida idio-stilning rivojlanishi: lingvostilistika tahlili **Rahmatilloyeva R.S.**	The development of idio-style in charles dickens’s creative work: linguastylistic analysis **Rahmatilloeva R.S.**	**160-167**

UDK: 796.071.3 https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3915

VOLEYBOL MURABBIYLARINI TAYYORLASH JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AFZALLIGI

Z.B.Boltayev
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Z.B.Boltayev
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Samarqand, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 18.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 30.03.2026
Qabul qilindi: 17.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada voleybol mashg‘ulotlari jarayonida innovatsion texnologiyalar - video-tahlil, virtual simulyatsiya (VR), interaktiv o‘qitish metodlari va raqamli monitoring tizimi - asosida murabbiyning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. 2025–2026 yillarda Samarqand davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat universiteti bazasida olib borilgan eksperimental tadqiqot natijalari taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: voleybol, kasbiy kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, video-tahlil, virtual simulyatsiya (VR), raqamli monitoring, interaktiv metodlar, pedagogik eksperiment.

Преимущества использования современных педагогических технологий в процессе подготовки тренеров по волейболу

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы развития профессиональной компетентности тренера на основе инновационных технологий в процессе подготовки волейболистов - видеопроанализа, виртуального моделирования (VR), интерактивных методов обучения и цифровой системы мониторинга. Представлены результаты экспериментальных исследований, проведенных в 2025–2026 годах на базе Самаркандского государственного педагогического института и Навоийского государственного университета.

Ключевые слова: волейбол, профессиональная компетентность, инновационные технологии, видеанализ, виртуальная симуляция (VR), цифровой мониторинг, интерактивные методы, педагогический эксперимент.

The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches

Abstract. This article examines the issues of developing a coach's professional competence based on innovative technologies - video analysis, virtual simulation (VR), interactive teaching methods, and a digital monitoring system - in the process of volleyball training. The results of an experimental study conducted at the Samarkand State Pedagogical Institute and Navoi State University in 2025–2026 will be presented.

Keywords: volleyball, professional competence, innovative technologies, video analysis, virtual simulation (VR), digital monitoring, interactive methods, pedagogical experiment.

Jahon sport ta’limida murabbiy kompetensiyasi masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Murabbiy - sportchi tayyorgarligining asosi, jamoaning intellektual va motivatsion markazi. Biroq an’anaviy tayyorgarlik modeli zamonaviy talablarga javob bermay qolmoqda. Tezkor ma’lumot tahlili, individual yondashuvni texnologik ta’minlash va real vaqt monitoringi - bularning barchasi innovatsion pedagogik yondashuvni taqozo etadi[2].

O‘zbekiston Respublikasida sport ta’limini rivojlantirish bo‘yicha 2021–2026 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturlari murabbiylarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishni ustuvor vazifa qilib belgilagan. Shu maqsadda respublika oliy ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va ularning samaradorligini ilmiy asoslash zaruriyati yuzaga keldi. Tadqiqotning tashkil etilishi, maqsad va vazifalarga muvofiq, voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishini aniqlash va ularning samaradorligini ilmiy asoslashga qaratildi [3]. Sport mashg‘ulotlari nazariyasida mashhur olim Vladimir Platonov sport tayyorgarligini uzoq muddatli tizim sifatida ko‘rib chiqib, sportchilarning yuksak natijalarga erishishi uchun mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish zarurligini ta’kidlaydi[1].

Tadqiqot eksperimental-metodik yondashuv asosida olib boriladi. Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalari (Samarqand davlat pedagogika instituti, Navoiy Davlat Universitetlarida tahsil olayotgan voleybol yo‘nalishidagi talaba-yoshlar, shuningdek, sport maktablarida faoliyat yuritayotgan amaldagi murabbiylar tashkil etdi. Tadqiqot ishtirokchilari ikki guruhga bo‘lindi. Tajriba guruhda 60 nafar ishtirokchi qatnashdi. Ular orasida 30 nafar oliy ta’lim muassasalari (Samarqand davlat pedagogika institutida) tahsil olayotgan sport faoliyati (voleybol) yo‘nalishidagi talabalar 30 nafarini esa sport maktablarida faoliyat yuritayotgan amaldagi voleybol murabbiylari tashkil etdi. Tajribada qatnashchilar ishtiroki ixtiyoriylik va rozilik asosida ta’minlandi. Ishtirokchilar guruhlarga teng shart-sharoitlarda, yoshi, kasbiy tajribasi, nazariy bilim darajasi kabi mezonlar asosida ajratildi. Nazorat guruhi – an’anaviy uslub asosida ta’lim olayotgan va faoliyat yuritayotgan murabbiylardan iborat. Ushbu guruhda ham 60 nafar ishtirokchi qatnashib, ulardan 25 nafari oliy ta’lim muassasalarining (Navoiy Davlat Universiteti) sport faoliyati (voleybol) yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, 35 nafari esa amaldagi murabbiylar bo‘lib, ular sport maktablarda faoliyat olib boradi. Ular maxsus metodik ta’sirsiz, faqat mavjud o‘quv dasturlar asosida faoliyat olib bordilar.

Tadqiqotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalar (onlayn ta’lim platformalari, elektron test tizimlari) orqali murabbiylar va talabalar o‘rtasida masofaviy ta’limning sifatli tashkil etilishi ta’minlandi. Zoom, Google Meet, Microsoft Teams kabi platformalar orqali onlayn darslar o‘tkazildi. Moodle, Google Classroom kabi tizimlar yordamida elektron dars materiallari almashildi, ishtirokchilar bilim darajasi onlayn test tizimlari orqali baholandi. Interaktiv testlar, quizlar, elektron forumlar va onlayn refleksiya usullari orqali murabbiylarning o‘quvchilarga ta’siri, qayta aloqa sifati va bilimlarni mustahkamlash darajasi oshirildi. Bu texnologiyalar pedagogik jarayonda mobil moslashuvchanlik, individual yondashuv va real vaqt monitoringi imkonini berdi[4].

Interaktiv metodlar (case-study, debatlar, brainstorming) voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. "Case-study" metodidan foydalanish orqali murabbiylar real sport holatlarini tahlil qilib, muammoga yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirdilar. "Debatlar" orqali talaba murabbiylar sportda yuzaga keladigan qarama-qarshi fikrlarni asosli himoya qilishni o‘rganadilar. Bu metodlar guruhda ishlash, ijtimoiy faollik va muammoli vaziyatlarga kreativ yondashuvni kuchaytiradi.

Video-tahlil texnologiyalari (o‘yin yozuvlarini tahlil qilish) yordamida o‘yin jarayonlari videoyozuvlar orqali qayta ko‘rib chiqildi va har bir harakat, xato va to‘g‘ri qarorlar tahlil qilindi. Murabbiylar mashg‘ulot va musobaqa jarayonlarining video lavhalarini tahlil qilib, sportchilarning texnik-taktik harakatlarini chuqur o‘rganish imkoniga ega bo‘ldilar. Bu vosita nafaqat harakatlardagi xatolarni aniqlash, balki ularni murakkab statistik ko‘rsatkichlar bilan bog‘lab tahlil qilishga imkon berdi. Shuningdek, murabbiylar uchun o‘z faoliyatlarini o‘zaro solishtirish, individual yondashuvni kuchaytirish va sportchilarning rivojlanishini vizual kuzatish imkoniyati yaratildi.

Virtual simulyatsiyalar (VR texnologiyalar orqali mashg‘ulot modellashtirish) texnologiyalaridan foydalanish orqali voleybol mashg‘ulotlari modellashtirildi. Ushbu texnologiyalar yordamida murabbiylar murakkab o‘yin vaziyatlarini vizual tarzda tasavvur qila oldilar va sportchilarni real sharoitga yaqinlashtirilgan simulyatsiyalarda tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu yondashuv qaror qabul qilish tezligini oshirish, stressga chidamlilikni shakllantirish va individual texnik xatolarni real vaqt rejimida tuzatish imkonini berdi. VR vositalari orqali o‘yinchilar o‘z pozitsiyalari, harakat

koordinatsiyasi va reaksiya vaqtini takomillashtirishga muvaffaq bo‘ldilar. Murabbiylar esa mashg‘ulot jarayonini boshqarishda yangi nazorat mexanizmlarini qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishdi.

Individual yondashuv va shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlari murabbiylarni tayyorlashda har bir ishtirokchining individual imkoniyatlarini hisobga olib, shaxsiy o‘sishiga ko‘maklashadi. Murabbiylarning kasbiy ehtiyojlari, bilim darajasi va psixologik holatini inobatga olgan holda, ularni tayyorlash jarayoni moslashtirilgan o‘quv rejasi asosida tashkil etildi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvi sportchilar va murabbiylar o‘rtasida mustahkam muloqotni shakllantirib, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minladi. Har bir ishtirokchi bilan alohida ishlash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va shunga qarab, mos metodikalarni tanlash orqali ta’lim samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Bu yondashuv murabbiylarning liderlik, muammolarni hal qilish va motivatsiyani saqlab qolish kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi.

Tadqiqot 2023–2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uchta sport muassasalarida bosqichma-bosqich olib borildi. Har bir bosqich o‘ziga xos tashkiliy shart-sharoitlar, o‘quv bazasi, tajribali murabbiylar va talaba-yoshlar bilan ta’minlangani bilan ajralib turadi. O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika insitituti (Samarqand viloyati) asosiy ilmiy-metodik markaz sifatida tanlanib, tajriba guruhi ishtirokchilari uchun maxsus o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etildi. Navoiy davlat universiteti (Navoiy shahri) nazorat guruhi bilan ishlash va an’anaviy ta’lim usullari asosidagi jarayon monitoringi amalga oshirildi. Samarqand viloyati ixtisoslashtirilgan sport maktablari: amaldagi murabbiylar ishtirokidagi real sport mashg‘ulotlarida zamonaviy texnologiyalarning ta’sirini baholashga imkon berdi. Tadqiqot bosqichlari qamrovli tarzda 2023-yil sentabr oyidan 2024-yil mart oyiga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oldi. Har bir bosqichda eksperiment ishtirokchilarining bilim darajasi, metodik yondashuvi va texnologiyalarga moslashuvi tizimli ravishda tahlil qilindi.

Tadqiqot ilmiy asosda tashkil etilib, kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi. Ilmiy ishonchlilikni ta’minlash va natijalarning obyektivligini aniqlash uchun quyidagi metodlar tizimli ravishda qo‘llanildi:

Empirik (kuzatuv, suhbat, pedagogik eksperiment)metodlar orqali real ta’lim jarayonlari bevosita kuzatilib, tadqiqot ishtirokchilari bilan muloqotda bo‘lish imkoniyati yaratildi. Kuzatuv usuli yordamida murabbiylarning dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasi va talabalarning javob reaksiyasi o‘rganildi. Suhbatlar yozma va og‘zaki shaklda olib borilib, ishtirokchilarning texnologik savodxonligi, motivatsiyasi va kasbiy o‘sishga bo‘lgan munosabati aniqlashtirildi. Pedagogik eksperiment asosida innovatsion metodlar joriy etildi va ularning natijasi nazorat guruhi bilan taqqoslandi.

Tadqiqotning nazariy asosini tashkil etuvchi ilmiy manbalar, xorijiy tajribalar, ilg‘or pedagogik yondashuvlar chuqur o‘rganildi. Tahlil usuli orqali har bir metodikaning samaradorlik omillari aniqlanib, sintez orqali o‘zaro moslashgan holda yagona o‘quv-metodik tizim yaratildi. Qiyosiy tahlil yordamida O‘zbekiston va rivojlangan davlatlar (AQSH, Kanada, Germaniya) tajribalari solishtirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlash maqsadida statistik tahlil usullari keng qo‘llanildi. O‘rtacha arifmetik qiymatlar orqali umumiy ko‘rsatkichlar baholandi. Dispersiya tahlili yordamida natijalar tarqoqligi o‘rganildi. Student t-testi usuli yordamida eksperimental va nazorat guruhlari orasidagi statistik farq aniqlab berildi. Korrelyatsion tahlil orqali turli o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasi o‘lchandi. Ushbu metodlar yordamida olingan ma’lumotlar grafik va jadval ko‘rinishida ifodalanib, ilmiy tahlilga asos bo‘ldi.

Tajriba guruhlar tuzilishi eksperiment uchun ikki guruh shakllantirildi: tajriba va nazorat guruhi. Har bir guruh 60 nafar ishtirokchidan iborat bo‘lib, mezonlar asosida tenglashtirilgan. Tajriba guruhida zamonaviy texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar olib borildi, nazorat guruhida esa an’anaviy metodlar qo‘llanildi.

Tadqiqot samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

№	Nazariy test savoli
1	Voleybol o‘yini nechta asosiy texnik harakatga bo‘linadi?
2	Voleybol to‘pini uzatishning nechta usuli mavjud?
3	Dastlabki xizmat (servis) qanday bajariladi?
4	Himoya zonasi qayerda joylashgan?
5	To‘pga ikki marta ketma-ket tegish mumkinmi?
6	Qanday holatda murabbiy texnik tanaffus olish huquqiga ega?
7	Qanday taktik sxema 5-1 deb nomlanadi?
8	Blok harakati qachon bajariladi?
9	Taktik uzatmalar qanday hollarda qo‘llaniladi?
10	Himoya harakatlarining asosiy maqsadi nima?
11	Libero o‘yinchining asosiy vazifasi nima?
12	Voleybolda qanday o‘lchov birliklarida balandlik baholanadi?
13	O‘yindagi asosiy hakamning vazifasi nima?
14	O‘yin davomida necha marta almashtirishga ruxsat beriladi?
15	Libero o‘yinchining chegaralari qanday belgilanadi?
16	Taktik tayyorgarlikda qanday reja tuziladi?
17	Voleybol o‘yin maydonining o‘lchamlari qanday?
18	Sportchining psixologik tayyorgarligi nimalarga ta’sir qiladi?
19	Jamoaviy muvofiqlashtirish nima degani?
20	O‘yinchilar o‘rtasida qanday kommunikatsiya bo‘lishi kerak?
21	Muvaffaqiyatli o‘yin uchun mashg’ulotlar qanday tuziladi?
22	Dastlabki qizish mashqlari nima uchun zarur?
23	Hujum harakati qanday boshlanadi?
24	Himoyaviy pozitsiyani o‘zgartirish qoidalari qanday?
25	Qanday holatlarda murabbiy ogohlantiriladi?
26	O‘yin strategiyasini qanday rejalashtirish mumkin?
27	Voleybolchilar uchun to‘g‘ri ovqatlanish rejimi qanday tuziladi?
28	Sport formasining qulayligi nima uchun muhim?
29	To‘pni to‘g‘ri qabul qilish qanday aniqlanadi?
30	Hakamlar jamoasi qanday tashkil etiladi?

Nazariy bilimlar darajasi testlar orqali aniqlandi. Ushbu mezon voleybol murabbiylarining nazariy tayyorgarlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Baholash uchun maxsus ishlab chiqilgan 30 ta test savolidan iborat testlar majmuasi qo‘llanildi. Savollar voleybol nazariyasi, pedagogik metodika, sport qoidalari, jismoniy tayyorgarlik asoslari, psixologiya, va strategik yondashuvlarni o‘z ichiga oldi. Har bir savol 1 ball bilan baholanib, maksimal ball 30 ni tashkil etdi. Test savollari 3 toifaga oddiy, o‘rtacha va murakkablik darajasi bo‘yicha tayyorlandi.

Texnik-taktik o‘rgatish sifati amaliy mashg‘ulot tahlili bilan aniqlandi. Ushbu mezon – voleybol murabbiylarining sportchilarni texnik va taktik jihatdan to‘g‘ri va samarali tayyorlash darajasini baholashga qaratilgan ko‘rsatkichdir. U orqali murabbiyning nafaqat harakatlarni o‘rgatishdagi metodikasi, balki ularning mazmuni, samaradorligi va ta’sirchanligi ham aniqlanadi. Baholash jarayonida murabbiy tomonidan berilayotgan ko‘rsatmalar, texnik topshiriqlarning mazmuni, sportchilarning reaksiyasi va shug‘ullanuvchilarga qaratilgan individual yondashuvlar tizimli ravishda tahlil qilinadi. Sportchi harakatlarining aniqligi, tezligi, ko‘rsatma berish sifati, murabbiyning differensial yondashuvi va mashg‘ulotni rejalashtirish qobiliyati asosiy kuzatuv mezonlari sifatida tanlandi.

Har bir murabbiy tomonidan olib borilgan amaliy mashg‘ulotlar video tahlil texnologiyalari yordamida qayd etildi va ekspertlar tomonidan quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholandi:

a) Texnik topshiriqlarni tushuntirish aniqligi;
b) Harakatlarni ko‘rsatib berish darajasi;
c) Mashg‘ulotni differensial yondashuv asosida tashkil eta olish qobiliyati;
d) Xatolarni to‘g‘rilash va konstruktiv mulohazalar berish faolligi;
e) Taktik sxemalarni real o‘yin vaziyatiga moslashtirib o‘rgata olish ko‘nikmasi.

Baholash Likert shkalasi (1 dan 5 gacha) asosida amalga oshirildi va natijalar Excel diagrammalari orqali solishtirildi. Tajriba guruh murabbiylari yuqori adaptivlik va interaktivlik ko‘rsatkichlarini namoyon qilgan bo‘lsa, nazorat guruhi asosan klassik uslublarga tayanib qolgan. Bu mezon murabbiylarning sportchilarni voleybolning texnik harakatlari (to‘pni o‘yinga kiritish, to‘pni qabul qilish va uzatish, to‘siq, sakrash) va taktik ko‘nikmalariga o‘rgatishdagi malakasi asosida baholandi. Amaliy mashg‘ulotlar video tahlil asosida kuzatilib, har bir murabbiyning ko‘rsatmalari, xatolarni to‘g‘rilash qobiliyati va samaradorlik darajasi tahlil qilindi.



1-diagramma: Texnik-taktik o‘rgatish sifatining Likert shkalasi bo‘yicha baholanishi

Raqamli texnologiyalarni qo‘llay olish malakasi interaktiv topshiriqlar orqali aniqlandi. Ushbu mezon zamonaviy voleybol murabbiylarining raqamli vositalardan foydalanish malakasini aniqlashga xizmat qiladi. Baholash jarayonida murabbiylarning video-analiz dasturlari (masalan, Dartfish, Coach’s Eye), simulyatsion treninglar (VR dasturlar) va onlayn o‘quv platformalar (Google Classroom, Moodle) bilan ishlay olish darajasi tahlil qilindi.

Psixologik-pedagogik yondashuv samaradorligi so‘rovnoma va ekspert baholari bilan aniqlandi. Ushbu mezon voleybol murabbiylarining psixologik sezgirligi, pedagogik yondashuvi, sportchilar bilan muloqot madaniyati va ijtimoiy-psixologik ta’sirchanlik darajasini baholashga xizmat qiladi. Baholash jarayonida murabbiylarning individual yondashuvi, ijobiy rag‘batlantirish qobiliyati, jamoaviy muhitni shakllantirish va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish malakasi o‘rganildi. Mezonga asoslangan baholash quyidagi yo‘nalishlarda olib borildi:

1.Sportchi bilan individual muloqot o‘rnatish qobiliyati;
2. Mashg‘ulot davomida motivatsiya usullaridan foydalanish darajasi;
3. Jamoa muhitini boshqarish va ijobiy psixologik sharoit yaratish faolligi;
4. Emotsional barqarorlik va inqirozli vaziyatlarda konstruktiv yondashuv;
5. Pedagogik nutq madaniyati va psixologik ta’sirchanlik darajasi.

Baholash uchun Likert shkalasidagi so‘rovnomalar (1 dan 5 gacha), kuzatuv kartalari va mustaqil ekspert baholari ishlatildi. Yakuniy natijalar shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida murabbiylarning psixologik-pedagogik yondashuvi samaradorligi 4.6 ballni tashkil etgan bo‘lsa,

nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 3.2 ball atrofida bo‘ldi. Bu farq zamonaviy ta’lim texnologiyalarining murabbiylarning shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi rolini isbotladi. Bu mezon Likert shkalasi asosidagi so‘rovnoma, kuzatuv jadvali va ekspert fikrlari asosida aniqlashtirildi. Bu farq tajriba guruhida qo‘llangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar murabbiylarning psixologik-pedagogik kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirganini ko‘rsatadi.

Psixologik-pedagogik yondashuv samaradorligi (so‘rovnoma va ekspert baholari) (1–5 Likert shkalasi bo‘yicha):

Baholash yo‘nalishi	Tajriba guruhi (ball)	Nazorat guruhi (ball)
Jamoa muhitini boshqarish faolligi	**4.5**	**3.3**
Emotsional barqarorlik	**4.4**	**3.1**
Pedagogik nutq madaniyati	**4.6**	**3.2**
Psixologik ta’sirchanlik darajasi	**4.5**	**3.2**

Xulosa qilib aytganda, ekspert baholari tajriba guruhi murabbiylari psixologik-pedagogik yondashuvning barcha yo‘nalishlarida nazorat guruhiga nisbatan **1.2–1.4 ball yuqori** ko‘rsatkichga egaligini ko‘rsatdi. Pedagogik kommunikatsiya, motivatsion yondashuv va jamoaviy muhitni boshqarish tajriba guruhida sezilarli darajada yaxshilangan. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik texnologiyalar murabbiylarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishini isbotlaydi.

Adabiyotlar

1. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 2015.
2. Юри Веркхошанскй Ю.В. Теория и методика спортивной тренировки. – Москва: Физкультура и спорт, 1988.
3. Yuri Hanin Y.L. Individual Zones of Optimal Functioning (IZOF) model in sport psychology. – 2000.
4. Boltayev Z.B. Voleybol bo‘yicha professional kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish zarurati O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Fan sportga ilmiy – nazariy jurnal 2025/6.
5. Boltayev Z. Voleybol texnikasi va taktikasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. Юсупов Б.М. Волейбол назарияси ва методикаси. — Тошкент, 2020.
7. Қосимов Ш.А. Спорт психологияси. — Тошкент: Фан, 2017.
8. Boltayev Z.B. Voleybol o‘yinining nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘zDJTSU nashriyoti, 2015.
9. Abdullayev A. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishdagi metodik yondashuvlar. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport universiteti nashri, 2021.
10. Xo‘jayev M. Voleybolni rivojlantirishning pedagogik asoslari. –Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296